

TANGRICHILIK TA'LIMOTIDA ILOHLAR PANTEONI

Akram Jo'rayev Namozovich

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti "Falsafa"

kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tangrichilik ta'limotidagi ilohlar panteonini tadqiq etilgan. Xususan, tangrichilik ta'limotidagi ilohlar panteoni dinshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Yaratgan", "Ko'ktangri", "Tangri", "qut", "uchmox", "Umay", "Erlik", "Erklik", "Veyshu", "ko'k ruh", "O'tov", "Ko'k".

ABSTRACT

This article studies the pantheon of gods in the doctrine of theology. In particular, the pantheon of gods in the doctrine of theology is analyzed from the point of view of religious studies.

Keywords: "Creator", "Ko'ktangri", "God", "Qut", "Uchmox", "Umay", "Erlik", "Erklik", "Weishu", "blue spirit", "Otov", "Blue".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ /INTRODUCTION)

Ma'lumki, Markaziy Osiyo insoniyat tamadduni beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu hududda diniy har xillikning tarixiy ildizlari uzoq-uzoq zamonlarga borib taqaladi. Ayni paytda bu makonda ulug' ajdodlarimiz – turkiy xalqlar ming yillardan beri yashab keladi. Mazkur makon o'zining o'ta muhim geografik va geopolitik joylashuvi nuqtai nazaridan turli madaniyatlar va tamaddunlarning to'qnashuv maydoniga hamdir. Sharq G'arbni bog'lovchi ushbu mintaqada azal-azaldan turli dinlarning doimiy aloqa maydoniga ham aylangan. Ajdodlarimiz turli tarixiy davrlarda u yoki bu darajada turfa dinlar (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik, yahudiylilik, xristianlik kabi) dinlarga e'tiqod qilgan bo'lsalar-da, ular orasida hech qaysi tangrichilik dini darajasida muhim ahamiyat kasb etmagan. Tarixiy manbaalarda tangrichilik dini miloddan avvalgi 2–ming yillik oxiri va 1-ming yillikda vujudga kelgan. Bu din qadimgi turkiy qabilalarning asosiy dini hisoblangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Ushbu maqolani tayyorlashda dinshunoslardan L.N.Gumilyov, Hasan Ato Abushiy, Sadri Maksudi Arsal, Chronique de Michel le Syrien, V.I.Avdiyev, Usmon Turon, A.Ochildiyev, D.Rahimjonov, M.Alimova, asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar va uslubiy tavsiyalarga tayanildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tangri soʻzi turli turkiy xalqlarda turlicha talaffuz qilinadi. Masalan, oʻzbeklarda “Tangri”, oltoy xalqlarida “Tengri” yoki “Tengeri”, turklarda “Tanri” yoki “Tengri”, qirgʻizlarda “Tanir” yoki “Tenir”, qipchoq, bolgar va ozarbayjonlarda “Tengri”, tatarlarda “Tengri” (ТЭНГРИ), yoqutlarda “Tangara”, qoʻmiqlarda “Tengeri” (ТЭНГЕРИ), moʻgʻullarda “Tenger” (ТЭНГЕР), qozoqlarda “Tenir” (ТЭНИР), bolqor-qorachoylarda “Teyri”, shorlarda “tegri”, xakaslarda “tiger”, “ter”, tubalıklarda “deer”, chuvashlarda “Tura” kabi shakllarda jaranglaydi. Shuningdek, qadimgi xunnlarda “Chenli”, shumerlarda “Dingir”, konfutsiylikda “Tyan” deyiladi.¹ Bu yerda shuni alohida taʼkidlash kerakki, bu xalqlarning barchasida Tangri “osmon xudosi” yoki “osmon” maʼnosida keladi.

“Qadimgi turkiy til lugʻati” kitobida bu atama, birinchidan “osmon”, ikkinchidan “xudo”, uchinchidan “ega”, “xoʻjayin” kabi maʼnolarda izohlanadi.²

“Oʻzbek ilining izohli lugʻati”da esa “osmon”, “xudo”³, Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasida ham shu maʼnoda⁴ ishlatiladi.

Tangrichilik dini taʼlimotiga koʻra, Tangri bu – yagona yaratuvchi xudo boʻlib, uning makoni Moviy Osmondur (albatta, ramziy maʼnoda, chunki qadimgi turklar koinotning hamma joyini Tangrining makoni hisoblaganlar) deb hisoblagan. Bu din taʼlimotiga koʻra, Tangri butun borliqning va barcha mavjudotlarning yaratuvchisi, cheksiz koinotda faqat uning oʻzi hamma narsadan voqif, adolatli va marhamat egasi, U hamma narsaning manbai, yer va osmonni, ulardagi barcha narsalarning yaratuvchisidir. Gunoh ishlari uchun jazolovchi, ayni vaqtda mehribon hamdir. U nafaqat, insonlarni yaratuvchi, balki ularning homiysi hamdir. U yaratuvchi va himoya qiluvchi kuchdir deb eʼtiqod qilingan. Tangri atamasi baʼzan, “Koʻktangri” atamasi bilan ham ishlatiladi. Tangrining qiyofasi hech kimga maʼlum emas. Uni inson yoki hayvon shaklida ifodalab boʻlmaydi. Inson tugʻilayotganda tangri unga “qut” ato etadi, vafot etganidan soʻng qaytarib oladi. Xitoy manbalarida aytilishicha, turklar ruhning mangu oʻlimga ishonishmagan, balki inson ruhi boshqa makonda, yaʼni “uchmox”da davom ettiradi, bu esa Tangriga bogʻliq deyilgan..

Tangrichilikda bir necha iloh boʻlib, ayollar rahnamosi qiyofasida Umay gavdalanadi. U ezgu ruhlardan biri boʻlib, Tangri tomonidan yaratilgan deb hisoblanadi. U hayot onasi, yerdagi hayotning birlamchi manbai, tugʻilajak bolalar homiysi hisoblangan. Bundan tashqari, Erlik yoki Erklik Tangrichilik dini saqlanib qolgan xalqlar diniy rivoyatlarida aytilishicha, Tangri hammadan ham avval yer

¹ Мифы народов мира. Энциклопедия в 2-х т. – М.: Сов. энциклопедия, 1992. – Т. 2., с. 500.

² Древнетюркский словарь. Л., 1969.

³ Oʻzbek ilining izohli lugʻati.662-b.

⁴ Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 90-b.

yuzida yashashi uchun “kishi”(odam) deb atalgan anchayin aql-idrokli mavjudot yaratgan. Unga boshqa osmon ruhlari singari baxt-saodatda yashash imkoniyati berilgan. Lekin u odam o‘zini tangri yaratganligini va atigi maxluq ekanligini unutdi. U o‘zini Yaratgan bilan teng deh hisoblay boshladi va Unga qarshi isyon qildi. O‘shanda Tangri bu odamni yerning qorong‘u qa‘riga ulotqirdi va unga “Erlik” nomini berdi. Tangri uni zulmat va yovuzlik olamiga bandi qildi. Shundan so‘ng Tangri yana boshqa “kishi” yaratdi. Hozirgi insonlar ana shu yangi “kishi”ning avlodlaridir. Erlik va yovuz ruhlar yer qa‘rida yashaydi, yer yuzida yashovchi odamlarga dushmanlik qiladi. Ular har bir qulay vaziyatda odamlarga zarar yetkazishga harakat qilishadi. Odamlar Tangrining qullaridir, har bir kishi barcha mavjudotlarning yaratuvchisi buyuk ko‘k Tangrisining ixtiyori asosida yashaydi. Insonlar qiyin vaziyatlarda Tangriga murojaat qilishi lozim, bu vaziyatda ibodat foydali hisoblanadi. Qorong‘u yerosti dunyosi yovuz ruhlar makoni, bo‘lib, unga qudratli Erlik boshchilik qiladi. Yerosti olamida yer uzidan farqli o‘laroq barcha chegaralar ko‘rinib turadi va boshqa hududlarga o‘tish o‘ziga xos eshiklar yordamida amalga oshadi. Barcha yerosti va suv olami mavjudotlari Erlikka bo‘ysunadi.⁵

Boshqa dinlarda bo‘lgani kabi tangrichilikda ham qurbonlik keltirish mavjud. Tangriga, ko‘pincha ot, shuningdek, qo‘y, sigirlarni qurbonlik keltirganlar. Gerodotning aytishicha, to‘ng‘iz saklar (turkiylar ajdodi) yurtida to‘ng‘iz ko‘p bo‘lsa-da, ularni umuman yemaydilar va qurbonlik ham keltirmaydilar.⁶ Xitoyning Vey sulolasiga tegishli tarixiy manba “Veyshu”da: “Har yili xon barcha a‘yonlari bilan ajdodlar g‘orida qurbonlik qiladi”, yana bir joyida esa: “Beshinchi oyning o‘rta o‘n kunligida barchani yig‘ib, daryo bo‘yida ko‘k ruhiga (Tangriga) bag‘ishlab qurbonlik beradi” deyiladiki, turkiylarda qurbonlik maxsus udumlari shakllanganligidan ma‘lumot beradi⁷.

Turkiy xalqlarda oila muhim o‘rin egallagan. Tangrichilikda esa oilada erkaklar mavqei baland hisoblangan. Ayolga munosabat hurmat va ehtirom asosiga qurilgan edi. O‘tovga kirib kelgan o‘g‘il avval onasiga, undan keyin otasiga ta‘zim bajo keltirardi.⁸

Ko‘pxotinlik turkiylar orasida qadimdan bo‘lgan. Xotinlar eri o‘lsa, ukasiga o‘tgan. Bu bilan beva huquqi himoya qilingan. Balki nikoh doimo amaliy bo‘lmagandir, lekin ayol ko‘chaga tashlab qo‘yilmagan. Ona tomondan

⁵ Садри Максуди Арсал. Тюркская история и права. – Казань: ФЭН, 2002, С.58-59.

⁶ Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T.: “Yurist-Media markazi”, 2008. – 21-b.

⁷ Бичурин Н. Я. Бичурин [Иакинф]. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. - М-Л.: АН СССР, 1950. Т.I, С. 270-271.

⁸ Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. T.: Fan, 2007, - 83-b.

qarindoshlikka katta ahamiyat berilgan. Tangrichilik jamiyatida ayollar nihoyatda qadrlangan.⁹

Oila ayol va qizlarni Gardiziyning: “Turk xotinlari juda iffatli bo‘lib, buni hamma biladi” degan fikrlari yaqqol misol bo‘la oladi.¹⁰

Mixail Siriyskiy esdaliklarining bir joyida: “Turklar batartib va shovqinsiz ilgarilaydi hamda to‘xtaydi. Zero ular doimo tinchlikni muhofaza etishar va ko‘p gapni yoqtirishmasdi”, boshqa joyida esa “Turklar qadr-qimmatga munosib xalqdirlar. Ular to‘g‘ri, oddiy, yolg‘on gapirmaslar, turmushlarida aqlli va munosibdirlar. Ular xotinlariga hiyonat qilmaslar, ularda zino juda kam, chunki ularda ikkinchi yoki uchinchi xotinga uylanish ta‘qiqlanmagan. Ular kam gapiradilar va ezmalikni yoqtirmaydilar”, deb keltiradi.¹¹

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, Tangrichilik dini dunyodagi eng qadimiy jahon dinlaridan biri bo‘lib, uning asosiy mohiyati monoteistik xarakterga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ba‘zi tadqiqotchilar, bu dinni ibtidoiy din shaklaridan biri yoki ularning murakkab umumlashmasi, sehrgarlik yohud shamanizm ham emas deb e‘tirof etadilar. Buni tarixiy manbalar va tadqiqotchillarning xulosalari tasdiqlaydi. U keyingi mingyilliklar davomida ham o‘zining yakkaxudolik xususiyatlarini saqlab qoldiki, bu keyinchalik turkiylarning islomiyatga o‘tishlariga sabab bo‘ldi;

REFERENCES

1. Мифы народов мира. Энциклопедия в 2-х т. – М.: Сов. энциклопедия, 1992. – Т. 2., с. 500
2. Древнетюркский словарь. Л., 1969.
3. O‘zbek ilining izohli lug‘ati.662-b
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 90-b.
5. Садри Максуди Арсал. Тюркская история и права. – Казань: ФЭН, 2002, С.58-59.
6. Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida. T.: “Yurist-Media markazi”, 2008. – 21-b
7. Бичурин Н. Я. Бичурин [Иакинф]. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. - М-Л.: АН СССР, 1950. Т.I, С. 270-271.
8. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. T.: Fan, 2007, - 83-b.
9. Chronique de Michel le Syrien. Ed. par J.-B. Chabot. Paris, 1910, t. IV, p. 566-571

⁹ Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. – T.: Cho‘lpon, 1995. – 95-96-betlar.

¹⁰ Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. – T.: Cho‘lpon, 1995. – 95-b.

¹¹ Chronique de Michel le Syrien. Ed. par J.-B. Chabot. Paris, 1910, t. IV, p. 566-571.